

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**BERDIBEKOVA FERUZA ABDUMANNOB QIZI**

**AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH  
SINF O‘QITUVCHILARINING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISH  
METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Berdibekova Feruza Abdumannob qizi**

Акмеологик yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish metodikasi ..... 3

**Бердибекова Феруза Абдуманноб қизи**

Методика развития профессионального мастерства у будущих учителей начальных классов на основе акмеологического подхода.....23

**Berdibekova Feruza Abdumannob qizi**

Methodology for developing the professional skills of future primary school teachers based on the acmeological approach.....45

**E'lon qilingan ishlar ro'yhati**

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**BERDIBEKOVA FERUZA ABDUMANNOB QIZI**

**AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH  
SINF O‘QITUVCHILARINING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISH  
METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifaning [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abrorxonova Kamola Abrorxon qizi**

pedagogika fanlari bo'yicha  
falasafa doktori(PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Shodiyeva Matluba Jo'rayevna**

pedagogika fanlari doktori, professor

**Isakulova Nilufar Janikulovna**

pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi,27-uy.Tel.:(99871)276-79-11;faks: (99871) 276-80-86, e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-75-87; faks:(99871) 276-80-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ da tarqatildi.

(2025 yil“\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**Z.N.Mamarajabova**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

**R.G.Isyanov**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash kotibi, p.f.n.dotsent

**Z.N.Mamarajabova**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta'lim tizimida akmeologik yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish kreativ texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy mahoratini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirish talabalarning kasbiy-kompetensiyalarini takomillashtirish, akmetexnologiyalarning didaktik imkoniyatlarini aniqlash, kasbiy mahoratiga ta'sir etuvchi texnologiyalarni shakllantirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahonning ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish, pedagogika sohasidagi professionallikga qaratish akmeologik yondashuv asosida talabalarning kasbiy rivojlantirishga qaratilgan yangi o'quv dasturlarini, o'qitish va baholash usullarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining muvaffaqiyatli faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan asosiy bilim va ko'nikmalarni belgilash ushbu bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan o'quv dasturlari va o'qitish texnologiyalarini uyg'unlashtirish bo'yicha tadqiqotlarda e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim muassasalarida ta'limni insonparvarlashtirish, raqobatbardosh boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash, xorijiy tajribalar asosida ta'lim mazmunini takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratildi. O'zbekiston Respublikasining Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'limni yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish"<sup>1</sup> ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining akmeologik yondashuv asosida kasbiy mahoratini rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlar va didaktik imkoniyatlar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 2-mart PF-5953-son "2017–2021 yillarda 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775 son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil

---

<sup>1 1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son.

27-iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risida” qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni kasbiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g’oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo’llari” ustuvor yo’nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o’rganilganlik darajasi.** Respublikamizda akmeologik yondashuv asosida bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlash jarayoni bo’yicha B.S.Abdullayeva, A.R.Aripdjanova, G.O.Ernazarova, J.A.Hamidov, Q.T.Isroilov, B.B.Ma’murov, N.A.Muslimov, Sh.O’Nurullayeva, O.A.Qo’ysinov, G.H.Tillayeva, A.A.Xalikov, B.X.Xodjayev, D.A.Yo’ldosheva, X.A.Shayxova, M.J.Shodiyevalar o’z ilmiy – tadqiqot ishini olib borishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi mamlakatlarida akmeologik yondashuv asoslarini A.A.Bodalev, L.N.Borisova, S.N.Begidova, A.A.Derkach, N.V.Kuzmina, G.M.Kuleshova, L.N.Kulikova, G.V.Reva, A.A.Rean, A.P.Sitnikov, V.A.Slasyonin, V.N.Tarasova, L.A.Xabayeva, G.I.Xozyainov, V.G.Zazikinlar tadqiqot ishini olib borishgan.

Xorijiy mamlakatlarda bo’lajak o’qituvchilarning akmeologik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining metodik ta’minotini yaratish masalalari bo’yicha xorijiy olimlardan P.L.Ackerman, E.Baker, P.Chambers, P.Fongkanta, H.Gandhi, N.Hauck, X.Karamanos, S.E.Lee, C.McCray, A.Maslou, F.Osmin, T.L.Vega, R.T.Williamslar tadqiqot etishgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiytadqiqot rejasining “Pedagogik yo’nalishlar va mutaxassislar bo’yicha ilg’or pedagogik texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta’lim reurslarini yaratish va takomillashtirish, o’quv jarayonig zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” nomli ustuvor yo’nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** akmeologik yondashuv asosida bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini tayyorlashda akmeologik yondashuvdan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

kasbiy tayyorgarlik jarayonida akmeologik yondashuv asosida bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kasbiy mahorati mazmunini aniqlash va uni rivojlantirish modelini takomillashtirish;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy mahoratini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining akmeologik yondashuv asosida kasbiy mahoratini rivojlanlanganligini aniqlash mezonlari va darajalari samaradorligini takomillashtirish;

**Tadqiqotning obekti** sifatida akmeologik yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni bo'lib, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Termiz davlat pedagogika instituti va Andijon davlat pedagogika institutlarining boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalaridan jami 461 ta respondent ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmetini** akmeologik yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tahlil, pedagogik kuzatuv, kasbiy metodlar (anketa, savol-javob, suhbat, ekspert baholash), qiyosiy tahlil, tashxis, umumlashtirish, pedagogik tajriba-sinov, umumlashtirish va statistik ishlov berish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda akmeologik yondashuvdan foydalanishning didaktik imkoniyatlari asosida kasbiy bilimlarining rivojlantirish komponentlari va bosqichlarining aniqlashtirilganligi, akmeologik ta'lim metodikalari, uni amaliyotga tatbiq etishning qulay didaktik shart-sharoitlari, refleksiv pozitsiyasining intellektual rivojlanish darajasi bilan ta'minlash asosida aniqlangan;

kasbiy tayyorgarlik jarayonida akmeologik yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy mahoratini rivojlantirish modeli maqsadni shakllantiruvchi, qadriyatga yo'naltirilgan, motivatsion-mazmunli, hosil qiluvchi komponentlari, akmeologik ta'limning kasbiy-didaktik imkoniyatlari ta'sirchanligi, uyg'unligi tayanch bilimlar asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda akmeologik yondashuvdan foydalanish metodikasi asosida o'zini o'zi rivojlantirish, kasbiy faoliyatning obektiv-subektiv va dialektik birligini va pedagogik ijodkorlikni muntazam aks ettirish hamda bilim va ko'nikmalarni diagnostik modellashtirish asosida asoslangan va eksperimental ravishda sinovdan o'tkazilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy rivojlanganligini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari, akmeologik yondashuv asosida kasbiy mahoratini rivojlantirishning maksimal, optimal, zaruriy darajalarini individual ta'lim traektoriyasiga funksional uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish metodikasi takomillashtirishgan;

“Umumiy pedagogika” nomli o'quv qo'llanma nashr ettirilgan; (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-sonli buyrug'i asosida nashrga tavsiya etilgan 23-0315 raqamli nashr ruxsatnomasi).

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** quyidagilar asosida tasdiqlangan: tadqiqot natijalarining ishonchliligi boshlang'ich pozitsiyalarning nazariy va uslubiy asosliligi,

o'rganilayotgan muammoni chuqur nazariy tahlil qilish, tadqiqot vazifalariga mos keladigan nazariy va amaliy usullar to'plamini amalga oshirish, diagnostika vositalaridan to'g'ri foydalanish, namunaning representativligi, nazariy qoidalarni eksperimental tekshirish, matematik statistika usullarini o'rganish mantig'iga mos keladigan tanlash bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** OTMdagi akmeologik yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuni, ta'limda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining akmeologik yondashuvni amalga oshirishning maqsadlari, mazmuni va usullari to'g'risida yangi ilmiy bilimlarni olishdan iborat. Shuningdek, akmeologik yondashuvni shakllantirishga qaratilgan va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishni ta'minlaydigan akmeologik yondashuvni amalga oshirish modelini nazariy asoslash.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahoratini rivojlantirish metodikasi mavzusidagi ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

akmeologik yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahoratini rivojlantirish imkoniyatlari kasbiy ahamiyatli vaziyatlarni kognitiv echimini topishning reflektiv-baholash traektoriyasini aniqlashga qaratilgan motivatsion va akmeologik yondashuvlarni o'zaro adaptiv uyg'unlashtirish hamda kommunikativ, hissiy-qadriyat yaxlitligini barqaror ta'minlash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Umumiy pedagogika" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-sonli buyrug'i asosida nashrga tavsiya etilgan 23-0315 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada akmeologik yondashuv asosida talabalarni kasbiy mahoratini rivojlantirishga doir nazariy va amaliy materiallar bilan boyitish imkoni yaratilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahoratini rivojlantirish samaradorligi pedagogik ko'maklashishga tashkiliy-faoliyati ta'sir qiluvchi didaktik omillarni aniqlash, axborotlar bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar mutanosibliги prinsipiga ko'ra tayanch bilimlarni bosqichma-bosqich modellashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Umumiy pedagogika" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-sonli buyrug'i asosida nashrga tavsiya etilgan 23-0315 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga doir nazariy va amaliy materiallar bilan boyitishga sharoit yaratilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahoratini rivojlantirish jarayoni tashkiliy-didaktik mexanizmlarining innovatsion-interaktiv tuzilmasini mustahkamlashga qaratilgan kasbiy loyiha va xatti-harakatlar majmuini o'zaro muvofiqlashtirish hamda analitik-tashkiliy, faoliyatli-natijaviy bosqichlar ketma-ketligi barqarorligini intensiv aniqlash asosida takomillashtirishga doir tavsiyalar "Umumiy pedagogika" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-sonli buyrug'i asosida nashrga tavsiya etilgan 23-0315 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik tizimini rivojlantirish mexanizmlari amaliyotda qo'llash samaradorligi oshirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahoratini rivojlanishini baholash mezonlari insonparvarlik ideallariga yo'nalganlik darajasini oshirishga qaratilgan ahloqiy komponentlarning pedagogik mazunini hamda motivatsion-kognitiv, refleksiv-baholovchi komponentlar uyg'unligini ta'lim maqsadlari bilan bosqichma-bosqich optimallashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Umumiy pedagogika" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-sonli buyrug'i asosida nashrga tavsiya etilgan 23-0315 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining kasbiy mahoratini rivojlantirish samaradorligini oshirishga erishilgan..

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy jurnallarida, ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan, 3 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 146 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim tashkilotlarining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, shuningdek, obekti va predmeti aniqlangan hamda ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi masalalari o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning "**Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik-psixologik jihatlari, innovatsion ta'lim sharoitida oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning kasbiy – pedagogik zaruriyati hamda oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining akmeologik yondashuv asosida innovatsion ta'lim sharoitida rivojlantirishning amaliyotdagi holati tahlil qilingan.

Tajribalardan ma'lumki, oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining pedagogik mahoratini rivojlantirish, yetarli kasbiy tayyorgarlikka, kasbiy tayyorgarlik yo'nalishida bilim, ko'nikma va malakalarga, shuningdek, ma'lum tajribaga ega bo'lishni talab etadi. Innovatsion ta'lim sharoitida oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining pedagogik mahoratini rivojlantirishda akmeologik yondashuv jarayonining asosiy maqsadi mustaqil ijodiy tafakkurga ega bo'lgan kadrlar tayyorlashdir. Faqatgina maxsus bilimlarga ega bo'lish

yaxshi bitiruvchini tayyorlash uchun yetarli emas, shaxsning intellektual kompetentlikka ega bo'lishi, ijodiy salohiyatiga egalik darajasini hisobga olingan.

Tadqiqot ishida akmeologik yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar tahlil qilingan.

R.Safarova tadqiqot ishida akmeologiya (yun. akme-yetuklik, cho'qqi, kamolot, yuksalish, (logos-ta'limot) shaxsning kasb-hunarni egallashda yuksak cho'qqiga erishishi bilan bog'liq masalalarni o'rganuvchi "Akmeologiya" fani haqidagi dastlabki qarashlar XX asrning 20-yillarida vujudga kelgan.

A.P.Sitnikovning so'zlariga ko'ra, akmeologiyaning boshqa fanlardan eng muhim farqi bu uning tadqiqot predmeti sifatida kasbiy mahorat va unga ta'sir qiluvchi omillarni maqsadli tanlash va shu asosda kasbiy mahoratni oshirish tizimlarini takomillashtirishdir.

Akmeologiya - kasbiy faoliyatni uning mahsuldorligi nuqtai nazaridan o'rganadi, kasbiy mukammallik cho'qqilarini takomillashtirish va erishish uchun qonuniyatlar va omillarni ochib beradi. Shu sababli, o'z tadqiqotining ma'lum bir sohasini tavsiflovchi akmeologiyaning markaziy toifasi - bu akmeologiya fanining konseptual apparatini tashkil etuvchi mahsuldorlik, faoliyat samaradorligi yoki mahorat tushunchalari orqali ochiladigan o'ziga xos jarayon professionalligi toifasi sifatida tushuniladi.

V.N.Tarasovanning fikriga ko'ra, "Akmeologiya - bu murakkab faoliyat ko'rsatadigan obektlarning sifatli o'zgarishi haqidagi fan va "akme" atamasi o'z-o'zini rivojlantirish predmetiga aylangan obektning intensiv rivojlanishi davrida sifatning eng yuqori namoyon bo'lishini anglatadi.

Shaxs rivojlanishining "akme" kategoriyasi bilan bog'liq bir necha talqinlari mavjud. Jumladan, "akme" - bu ko'p qirrali holat bo'lib, insonning har doim jamiyatda qanchalik o'z o'rniga ega ekanligi, uning ta'lim sohasi mutaxassisi sifatida olib borayotgan samarali faoliyati, shaxs sifatida esa atrofidagilar bilan ijtimoiy aloqa o'rnatish darajasiga ham bog'liqdir.

Kasbiy akmeshaxs - kasbiy faoliyatini tashkil etishda yuqori darajaga erishgan, intellektual va ijodiy salohiyatini, pedagogik mahorati va texnikasini namoyon eta oluvchi, mustaqil fikrlovchi, o'zini o'zi rivojlantiruvchi, kasbiy muvaffaqiyatga intiluvchi yetuk shaxs.

Demak, akmeologiya obektlarning yaxlitligini o'rganishini hisobga olib, ularni mahsuldor tizim sifatida ko'rib, "tizim", "tuzilma", "akmeologik yondashuv", "akmeologik tadqiqot" tushunchalarining mohiyatiga murojaat qildik.

F.F.Korolyev, N.V.Kuzmina, V.A.Slastyonin, N.V.Kuxarev va boshqalarning tadqiqotlari ta'lim jarayonini o'zaro bog'liq tarkibiy qismlardan tashkil topgan samarali pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

Shu fikrni N.V.Kuxarev tarafdori sifatida quyidagi fikrlarni beradi: Tizim - o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sir qiluvchi elementlarning barqaror tartibi uning ichki tuzilishini tashkil etadigan yaxlit obektidir. Tizim - bu faoliyat ko'rsatadigan tuzilma bo'lib, uning faoliyati ma'lum maqsadlarga bo'ysunadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, tizim - bu munosabatlar bilan tartibga solingan, aniq belgilangan xususiyatlarga ega bo'lgan, faoliyati ma'lum maqsadlarga

bo'ysunadigan (obektning yaxlitligi ta'minlangan) obektning o'zaro bog'langan tarkibiy qismlari to'plami sanaladi.

Pedagogik tizim (PT) yosh avlod va kattalarni tarbiyalash, o'rgatish va o'qitish maqsadlariga bo'ysunadigan o'zaro bog'liq bo'lgan tarkibiy va funksional komponentlar majmuyi sanaladi. Pedagogik tizimning tarkibiy qismlari pedagogik tizimning asosiy xususiyatlari sifatida, ularning umumiyliigi, mavjudligi faktini tashkil qiladi va ularni boshqa barcha (pedagogik bo'lmagan) tizimlardan ajratib turadi. N.V.Kuzmina fikricha pedagogik tizim quyidagilarni o'z ichiga oladi: pedagogik maqsad; ma'lumot; o'quvchilar kontingentiga pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalari, shakllari va usullari; o'quvchilar; o'qituvchilar.

Zamonaviy bilimlarning barcha sohalarida biz murakkab obektlarni, muayyan "yaxlitlik" yoki "tizimlarni" tahlil qilish zaruratiga duch kelishga majburmiz. Bu ilmiy tafakkurni tubdan qayta yo'naltirishga olib keladi.

V.N.Tarasova, "akmeologik yondashuv" "tizimli" va "shaxsiy-faoliyat" yondashuvlarining birligini nazarda tutadi" - deb hisoblaydi.

V.T.Zazikin akmeologik yondashuvning tushunchasiga "Akmeologik yondashuv - bu akmeologik muammolarni hal qilishga imkon beruvchi texnika va usullarning tamoyillari to'plami sifatida faoliyat ko'rsatadigan asosiy umumlashtiruvchi tushunchadir" tarifini beradi.

M.J.Shodiyeva tadqiqot ishida, "Akmeologik yondashuv – bu insonning rivojlanishi, uning shaxsiy va kasbiy shakllanishi, yuqori marralarni egallash qonuniyatlarini qayd etib, o'qituvchining o'z faoliyatida erishgan eng yuqori cho'qqisi hisoblanadi. Shu bois, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'limini tashkil etish, ularni kasbiy rivojlantirishda akmeologik yondashuvni qo'llash samarali kasbiy va metodik tayyorgarlik, yuqori natijalarga erishish, ularda "akmeologik moyillik"ni rivojlantirish, ijodiy potensialni rag'batlantirish, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun shaxsiy imkoniyatlarni aniqlash va ulardan unumli foydalanishni ta'minlaydi" deya izohlaydi.

Akmeologik yondashuv quyidagi tamoyillardan kelib chiqadi: birinchidan, intellektual yetuk, yuksak professional mutaxassis, salohiyatli, bilimli, jahon standartlariga javob beradigan kadrlarni jamiyatning zamonaviy talablari asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirish ustuvor vazifalardan bo'lishi lozim; ikkinchidan, intellektual boy, yuksak ma'naviyatli akmeshaxs, akmeopedagoglarning zamonaviy tafakkur rivoji mahsuli asosida ikkita eng muhim strategik maqsad – sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratish va inson kapitalini mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashga erishish mumkin; uchinchidan, respublikamizda yangilanish va taraqqiyot jadal davom etayotgan davrda dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bizning tadqiqotimizga ko'ra, akmeologik yondashuv obektlarni tizim sifatida o'rganishga asoslangan yondashuvdir; u tadqiqotchini shaxsiy shart-sharoitni hisobga olgan holda obektning yaxlitligini va uni ta'minlovchi mexanizmlarni ochishga, faoliyatdagi murakkab obektning turli xil bog'lanish turlarini aniqlashga yo'naltiradi.

Biz akmeologik tadqiqotlar quyidagilarni amalga oshirishda yordam beradi, degan xulosaga keldik: o'rganilayotgan obektni tizimli ko'rish; ishlaydigan murakkab

obektlarning kompleks diagnostikasi; fanlararo darajada tadqiqot gipotezasini shakllantirish; tajribaning murakkab natijasini bashorat qilish; jarayonlarning shaxsiy konditsionerligini hisobga olgan holda; obektiv ma'lumotlarni olish uchun test va faoliyat diagnostikasi bilan birgalikda faol modellashtirish usulidan foydalanish; sifatli natijaga erishish strategiyalarini o'rganish jarayonida aniqlash; kasbiy mahorat va unumdorlikni baholash mezonlarini o'rganish jarayonida unga erishish yo'llari va vositalarini asoslash; tadqiqot natijalarini har tomonlama tahlil qilish; tavsiyalar ishlab chiqish.

Shunday qilib, bizning tadqiqotimizda o'rganilayotgan obektni tizimli o'rganish ta'lim jarayonini samarali pedagogik tizim sifatida idrok etish bilan ta'minlanadi. Bizning tadqiqotimiz OTM tizimidagi akmeologik muammolarni samarali yechimini topish uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilarini (TDPU, TDPI, ADPI) kabi oliy ta'lim muassasalarining "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi talabalari) tayyorlash tizimiga asoslanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish metodikasi**" deb nomlanib, unda talabalarda kasbiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, akmeologik yondashuv asosida talabalarni pedagogik mahoratini rivojlantirish modeli, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini tatbiq etish yo'llari yoritib berilgan.

Akmeologik yondashuvni amalga oshirish maqsadi sifatida shaxsning akmeologik yo'nalishi, tashkiliy muhit sharoitlari va akmeologik yondashuv (OTM) amalga oshiriladigan muassasalar faoliyati subyektlarining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra tadqiqotimiz davomida biz akmeologik yondashuvni amalga oshirish imkoniyati va muvaffaqiyatini belgilaydigan shartlarini o'rganilgan.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining akmeologik yondashuv asosidagi kasbiy mahoratini rivojlantirish modelini ishlab chiqish - zamonaviy oliy ta'limning vazifasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ma'naviy va kasbiy-psixologik qobiliyatlarini mustahkamlash orqali uning axloqiy o'zini o'zi anglashini rivojlantirish bilan bog'liq. Salomatlik, hayotga ijobiy munosabat, odamlarga va jamiyatga ishonch va buning natijasida talabalar akmeologik madaniyatining qadriyat tarkibiy qismi sifatida ma'naviyatni rivojlantirishga xizmat qilishi yoritilgan.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining akmeologik yo'nalishini shakllantirish darajasini diagnostika qilish va baholash metodologiyasi batafsil tavsiflangan; tadqiqotimiz kontekstida talabalar shaxsiy xususiyatlarning akmeologik yo'nalishini ayni vaqtdan boshlab bosqichma-bosqich rivojlanishini ta'minlash shartlari ko'rsatilgan.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining akmeologik yondashuv mazmuni va mezonlarining mohiyatiga ko'ra, diagnostika va uning shakllanishi samaradorligini baholash quyidagi usullardan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin: og'zaki so'rov, ta'lim jarayoni va natijalarining mazmunini tahlil qilish, o'z-o'zini tarbiyalash, refleksiv maqsad qo'yish, amaliy kasbiy faoliyatni pedagogik kuzatish, o'z-o'zini baholash, ekspert baholash, diagnostika vositalari o'ziga xos baholash usullarining samaradorligi asoslangan.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini "Pedagogik mahorat" fanidagi

amaliyotini quyidagi yo‘nalishlarda tahlil qildik:

Akmeologik yondashuv asosida kasbiy mahoratini rivojlantirishda kasbiy pedagogik faoliyatini amalga oshirish funksiyalari yuzasidan uzviyligi masalalarini tahlil qilish; akmeologik yondashuv asosida kasbiy mahoratini rivojlantirishda shaxs va kasbiy ongning o‘zaro tasirini akmeologik yondashuv asosida kasbiy mahorati jihatdan asoslash, ijimoiy muhit va kasbiy munosabatlarni ilmiy pedagogik asoslarini tahlil qilish; bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini akmeologik yondashuv asosida kasbiy mahoratini rivojlantirishda mustaqilligi va faolligini rivojlantirish, tanqidiy tafakkurini o‘stirishga qaratilgan interaktiv ta‘lim olishlariga ko‘mak beruvchi o‘qitish metodlari, innovatsion usullardan, guruhli ta‘lim shakllaridan keng foydalanishni tahlil qilish.

60110500-Boshlang‘ich ta‘lim o‘quv rejasi va “Pedagogik mahorat” o‘quv fani dasturini tahlil qilindi.

“Pedagogik mahorat” fanini o‘qitish metodikasi vazifalariga quyidagilar kiradi: “Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nalishida bakalavrlar tayyorlashda mutaxassislik fanlarining rolini aniqlash; fan bo‘yicha o‘quv va ishchi o‘quv dasturlar, fanning elektron modulli o‘quv-uslubiy va ilmiy-axborot majmuasini tayyorlash, takomillashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish; fanning modullari mazmunini hamda o‘zlashtirish ketma-ketligini aniqlash; fanning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda talabalarni o‘qitishning tashkiliy shakllari metod va usullarini ishlab chiqish; o‘quv jarayonining didaktik ta‘minotini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish.

Boshqa mutaxassislik fanlari kabi “Pedagogik mahorat” fanini o‘qitishda ham ko‘rgazmali, amaliy, og‘zaki va yozma uslublar orqali mavzuni tushuntirish mumkin. Albatta ushbu metodlardan kompleks holda foydalanilganda eng yuqori samaraga erishiladi.

Shuningdek, talabalarning mustaqil va ilmiy-ijodiy kompetensiyalarini shakllantirish hamda rivojlantirish maqsadida og‘zaki uslubga bahs-munozaralar, yozma uslubga esa tezis (maqolalar) yozish, iqtiboslik, annotatsiya va taqriz yozish kabilar kiritilgan. Albatta bu uslublar ko‘proq mustaqil ta‘limni tashkil etishda qo‘llanilsa, yaxshi samara beradi.

Biz o‘z tadqiqotimizda model tushunchasiga bir qator pedagog olimlar tomonidan berilgan ma‘lumotdan foydalanamiz: Model deganda tadqiqot obektini aks ettirib yoki qayta ishlab uni o‘rganishni bizga obekt haqida yangi ma‘lumot beradigan fikriy tasavvur yoki ma‘lumotni amalga oshiradigan tizim tushuniladi.

Bir qator tadqiqotlarda ta‘kidlanishicha, barcha modellar quyidagi aniq umumiy chizgilarga ega: modellashtiriladigan predmetga tizimli va tuzilmali nuqtai-nazardan qarash; o‘rganilayotgan obektga mos shajarani tasvirlash; tadqiqot olib borish uchun qulay bo‘lgan darajalar majmuasining mavjudligi.

Hamma vaqt aniq modellashtirish obekti tahlil qilingani uchun, unga uni boshqa obektlardan farqlanuvchi va model aks etgan individual xarakteristikalar xos bo‘ladi. Har qanday modelda ijod, evristika va hatto fantaziya elementlari mavjud.

Model quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak: qo‘llashning soddaligi, oddiylik, bayonning aniqliligi, ifodaliligi bilan eng muhim xarakteristikalarni qamrab olish. Pedagogik modellar maksimal darajada didaktik obektlarni qamrab olishi va o‘qitishning sharoitlari, mazmuni, metodlari, shakllarini tasvirlash imkonini beradi.

Yangi modelni qurish uchun, biz talab qilingan obektning ko‘rinishi va xarakteri, dastlabki materialning ko‘rinishi va xarakteri, o‘zgartirish uchun zarur qurol va vositalar, amalga oshirish kerak bo‘lgan alohida harakatlar xarakteri, ularning tartibini aniqladik.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining akmeologik yondashuv asosida kasbiy mahoratini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish maqsadi belgilab olindi. Maqsad asosida belgilab olingan vazifa – bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining akmeologik yondashuv asosida kasbiy mahoratini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdir.

Asosiy blokda dastlab, maqsad asosida oldimizga qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining akmeologik yondashuv asosida kasbiy mahoratini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bosqichlari belgilab olindi.

Akmeologiyaning birinchi guruhining texnologiyalari (yuqori rivojlanish salohiyatiga ega) o‘yin texnologiyalarini (ishbilarmonlik o‘yinlari, aks ettiruvchi o‘yin, tashkiliy-faol o‘yin, tashkiliy-kommunikativ o‘yin va boshqalar), treninglar (professional-kommunikativ o‘yin va boshqalar), kasbiy mahoratni (vaziyatli, kasbiy-psixologik, akmeologik va boshqalar) va kasbiy vaziyatlarni modellashtirilgan.

Birinchi bosqich bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining akmeologik pozitsiyasi darajasini diagnostika qilish (texnologiyani amalga oshirishdan oldin va keyin) bilan ifodalanib, amalga oshirilgan texnologiyaning samaradorligini ko‘rsatadigan natija kasbiy tayyorgarlik jarayonida akmeologik pozitsiyaning dinamikasi (akmeologik pozitsiyaning darajasini oshirish) sifatida bayon etilgan.

Ikkinchi bosqich bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining akmeologik pozitsiyasini ishlab chiqishni nazarda tutadi, bu quyidagi usullarni o‘z ichiga oladi:

“Pedagogik faoliyatning haqiqiy va potentsial ma‘nolari va qadriyatlarini”. Ushbu metodologiyaning maqsadi o‘qituvchiga pedagogik faoliyatning umumiy ma‘nolari va qadriyatlarini, o‘z kasbiy faoliyatining ma‘nolari va qadriyatlarini tushunishdir.

“Reflektiv” trening. “Reflektiv” treningda aks ettirish hodisasining psixologik mazmuni: uning mexanizmlari, bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi ongi va faoliyatidagi roli va o‘rni; bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining reflektiv qobiliyatini rivojlantirish yo‘llari va usullari metodologiya vazifasini bajargan.

Bu trening maqsadi: bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari - ishtirokchilarning aks ettirish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Ushbu maqsadga quyidagi vazifalar orqali erishilgan; ishtirokchilarni kelajakda o‘qituvchilik kasbiga yetaklagan motivlar haqida fikr yuritish; ishtirokchilar tomonidan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining umumiy va shaxsiy kasbiy muvafaqqiyatini aks ettirish va anglash; o‘zini professional sifatida tasvirlash; o‘quvchi va o‘qituvchining roli bilan bog‘liq metaforalarni o‘rganish, umumiy o‘quv vazifalari aniq bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ongida; talabalar, ota-onalar, hamkasblar va ma‘muriyat bilan o‘zaro munosabatlardagi qiyin kasbiy vaziyatlarni pedagogik jihatlari tahlil qilingan.

“Shaxsni o‘zini va o‘z vaqtini boshqarish” trening. U ikki qismdan iborat: o‘z-o‘zini boshqarish (o‘z-o‘zini boshqarish, bu yerda maqsad bo‘lajak boshlang‘ich sinf

o'qituvchisi tomonidan o'z resurslarini hisobga olgan holda o'z faoliyatini tashkil etishning samarali usullarini o'zlashtirish va ulardan foydalanish) va vaqtni boshqarish (vaqtni boshqarish, bu yerda maqsadi - vaqtdan optimal foydalanish texnikasini o'zlashtirish) kabi xususiyatlari ochib berilgan.

“Motivatsion” trening. Trening doirasida motivatsiyani rag'batlantirish va boshqarish usullari va usullari muhokama qilinib, motivatsiya va o'z-o'zini rag'batlantirish, motivatsiya tashxisi asosida qo'yilgan.


Akmeologik potentsialni yangilash bo'yicha o'qitish birinchi guruh “Akmeologik - o'yin” metodikasiga asoslangan bo'lib, ular quyidagilardan foydalanadilar: ishbilarmonlik o'yinlari (ular mavzu va kasbiy tarkibni qayta tiklash shakli, kasbiy faoliyatga xos bo'lgan bunday munosabatlar tizimini modellashtirish). Umuman bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining faoliyati ); didaktik o'yinlar (yechimlar zanjirining yo'qligi va rivojlanish vazifasini bajarish, ishtirokchilarni mustaqil ravishda yechimlarni izlashga faollashtirish bilan tavsiflanadi) va ularning navlari; vaziyatni tahlil qilish va o'yin dizayni orqali amalga oshirilgan.

“O'z-o'zini parvarish qilish” psixologik marafoni. Psixologik marafon doirasida savollar tug'iladi: o'zimni qanday o'zgartirishim kerak? O'zimga qanday g'amxo'rlik qilishim kerak? O'z oldimga qo'ygan maqsadlarimga erishish uchun zamonaviy inson va professional bo'lish uchun shaxsiyatimda qanday o'zgarishlar qilishim kerak? Agar mening kasbim boshqalarga g'amxo'rlik qilishni o'z ichiga olsa, men o'zimga qanday g'amxo'rlik qilishni bilamanmi? Psixologik marafon ekzistenyial-akmeologik yo'nalishdagi o'yin texnologiyalari, musiqa hamrohligi, munozara, tajriba almashish va mulohaza yuritish bilan birgalikda rasm chizish texnikasidan foydalangan holda amalga oshirilgan.

“Individual akmeologik kasbiy trayektoriya” trening. Trening maqsadi individual professional akmeologik trayektoriyani (shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun individual rejani tuzish) amalga oshirilgan.

A. Ishirokchilardan kelajakdagi kasbiy faoliyatining ma'nolari va qadriyatlarini tahlil qilish asosida quyidagi savollarga javob berish so'raladi (yakka tartibda amalga oshiriladi): Men o'z kasbiy faoliyatimning ma'nosini nimani ko'raman? Hozirgacha mening kasbiy yutuqlarim qanday? Men o'z kasbiy rivojlanishim uchun qanday istiqbollarni ko'raman (5, 10, 15 yil ichida)? Men o'zim uchun qanday ustuvorliklarni belgilayman? Men o'z kasbiy rivojlanishimda qanday bosqichlarni aniqlayman? Men o'z oldimga qanday professional maqsadlarni qo'yaman? Mening kasbiy maqsadlarim noprofessional (shaxsiy, oilaviy, dam olish va h.k.) maqsadlarga mos keladimi? Qanday omillar (irsiyat, atrof-muhit, faoliyat, sharoitlar) mening rejalarimga ta'sir qilishi mumkin? Kelajakda qanday kasbiy yutuqlarga erishmoqchiman? Kelgusi kasbiy rivojlanish bo'yicha qanday tadbirlarni amalga oshirmoqchiman?

B. 3-4 kishidan iborat guruhlarda muhokama. Savol: Umumiy munozara: kasbiy akmeologik traektoriyani qurishda o'z kasbiy rivojlanishi (maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari, mumkin bo'lgan yutuqlar) haqida qanday yangi tushuncha paydo bo'ldi?  
D. Shaxsiy va kasbiy rivojlanish rejasini (individual ravishda) tuzish.



**1-rasm. Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish modeli**

Dissertasiyaning **“Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish samaradorligi bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish”** deb nomlangan uchinchi bobida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining tashkil qilinishi va natijalari bayon qilingan. Akmeologik yondashuv asosida talabalarda kasbiy mahoratni rivojlantirish yuzasidan tadqiqot ishimiz quyidagilardan iborat: izlanuvchi-ta‘kidlovchi tajriba-sinov ishlari, shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari va yakuniy baholash tajriba-sinov ishlari amalga oshirilgan.

Tajriba-sinov ishlari Toshkent davlat pedagogika universiteti, Termiz davlat pedagogika instituti, Andijon davlat pedagogika institutlarida tashkil etildi. Obektiv shart-sharoitlarda so‘rovnoma va anketa savollariga javob olish uchun tajriba va nazorat guruhlari bo‘yicha jami 461 nafar talaba jalb etildi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining akmeologik yondashuv asosida kasbiy mahoratini rivojlantirish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlar jarayoni tashkil etish va o‘tkazish holati tahlil qilindi hamda uning ta‘lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati o‘rganildi. Akmeologik yondashuv asosida talabalarni kasbiy mahoratini rivojlantirish metodikasi bo‘yicha o‘quv jarayonida olib borilgan mashg‘ulotlar orqali tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha pedagogik-ilmiiy-tashkiliy muammo ekanligi ko‘rsatib o‘tildi. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati izlanuvchan bosqichida pedagogik akmeologik yondashuv asosida talabalarni kasbiy mahoratini rivojlantirish jarayonini tashkil etish va o‘tkazish uchun so‘rovnoma ishlab chiqildi. So‘rovnoma belgilangan oliy ta‘lim muassasalari talabalarining birlashtirib olingan guruhlarda o‘tkazilgan.

Tajriba-sinov ishtirokchilarini (maksimal, optimal, zaruriy) darajalar bo‘yicha talabalarda kasbiy kompetentsiyasini rivojlanganlik darajasini aniqlashga imkon berdi. Tadqiqotimizni tadqiq etish jarayonida talabalarda akmeologik yondashuv asosida kasbiy mahoratini rivojlanganlik darajasini baholovchi empirik tahlilini batafsil yoritilib berilgan.

Tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan jami o‘rtacha 461 nafar respondent-talabalarni tasodifiy tanlov tamoyiliga muvofiq quyidagi sonlarda tajriba va nazorat guruhlariga birlashtirildi: tajriba guruhlariga 232 nafar; nazorat guruhlariga 229 nafar baholandi.

Respondentlarning akmeologik yondashuv asosida kasbiy mahoratni rivojlantirishga qaratilgan jarayon samaradorligi kvalimetrik jihatdan to‘g‘ri deb topildi hamda samaradorlik ko‘rsatkichlari “zaruriy (quyi)”, “optimal (o‘rta)”, “maksimal (yuqori)” darajalar bo‘yicha baholandi: maksimal darajada talaba ega bo‘ladigan sifatlar: kasbiy faollikka yo‘nalganlik, mantiqiy fikrlash, kasbiy munosabatlarga moslashuvchanlik, o‘ziga xos talabchanlik, tashabbuskorlik ko‘nikmalarining mavjudligi, kasbiy mahoratning rivojlanganligi, kreativ fikrlar, “Ideal mutaxassis”, “Mohir akmeologlar”, “Professiogramma”, “Pedagogik tizim” uyushgan, maqsadli pedagogik tizim yaratish uchun zarur bo‘lgan o‘zaro bog‘liq vositalar, usullar va jarayonlar majmui berilgan fazilatlarga ega bo‘lgan shaxsning shakllanishiga ta’sirida faol ishtirok etish qobiliyati asoslangan.

